

Qayta tayyorlash kursi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish TARTIBI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari uchun pedagog kadrlarni qayta tayyorlash kursi bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o‘tkazish qoidalarini belgilaydi.

2. Qayta tayyorlash kursi tinglovchisi kursning o‘quv rejasida ko‘zda tutilgan barcha oraliq nazoratlar va yakuniy attestatsiyada ijobiy natija ko‘rsatsa, kursning o‘quv dasturi to‘liq o‘zlashtirilgan hisoblanadi.

3. Yakuniy attestatsiya kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti rahbarining buyrug‘i bilan tashkil etilgan komissiya(lar) tomonidan o‘tkaziladi.

4. Qayta tayyorlash kursining oraliq nazoratlari va yakuniy attestatsiyasi jarayonlarini shaffof va adolatli o‘tkazilishi uchun kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti rahbari shaxsan javobgar hisoblanadi.

2-bob. Oraliq nazorat

5. Oraliq nazorat kurs davomida o‘quv rejasidagi o‘quv fanlari (yoki fan bloki) tugagandan, shuningdek, kurs davom etadigan muddatning ma’lum bir qismi o‘tganidan so‘ng tinglovchining bilim va ko‘nikmalarini baholash maqsadida yakka tartibdagi topshiriqlar (test, yozma ish, ijodiy ish) shaklida o‘tkaziladi.

6. Oraliq nazoratlarning soni va o‘tkazish shakli, muddati (grafigi) kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti tomonidan belgilanadi. Bunda, o‘quv rejasidagi umumkasbiy fanlar blokiga kiruvchi 40 foizigacha va ixtisoslik fanlar blokiga kiruvchi 60 foizigacha fanlardan oraliq nazorati o‘tkaziladi. Oraliq nazorati topshiriqlari tegishli modullar bo‘yicha dars beradigan professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqiladi.

7. Oraliq nazorat topshiriqlarini baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi. Kamida 56 foizini to‘plagan tinglovchi tegishli o‘quv moduli bo‘yicha oraliq nazoratda yetarli ball to‘plagan hisoblanadi.

8. O‘quv jarayoni o‘quv modullaridan iborat bloklar tarzida tashkil etilgan kursda oraliq nazorat, har bir blok yakunida, uning tarkibiga kiruvchi o‘quv modullari bo‘yicha alohida-alohida, shuningdek blok tarkibiga kiruvchi barcha o‘quv modullari bo‘yicha ularga ajratilgan dars soatlariga mutanosib ulushda shakllantirilgan yagona test bankidan foydalanilgan tarzda test sinovi shaklida tashkil etilishi mumkin.

9. Qayta tayyorlash kursining oraliq nazoratlarda yetarli ball to'play olmagan tinglovchiga 1 oy muddat davomida qayta topshirishga imkoniyat beriladi.

Belgilangan muddatlarda oraliq nazoratni qayta topshira olmagan tinglovchi tinglovchilar safidan chiqariladi.

10. Oraliq nazorat natijalari bo'yicha tegishli qaydnomalar rasmiylashtiriladi.

11. Qayta tayyorlash kursining oraliq nazorat topshiriqlarini muvaffaqiyatli bajargan tinglovchi yakuniy attestatsiyaga qo'yiladi.

3-bob. Qayta tayyorlash kursi bitiruvchilarining yakuniy attestatsiyasi

12. Qayta tayyorlash kursining yakuniy attestatsiyasini o'tkazish uchun kamida 5 nafar a'zodan iborat tarkibda yakuniy attestatsiya komissiyasi (keyingi o'rinlarda – Komissiyalar) tashkil etiladi.

13. Komissiya raisi mazkur ta'lim muassasasida ishlamaydigan malakali kadrlar, ta'limni boshqarish organlari va ta'lim muassasalarining yetakchi mutaxassislari tarkibidan bir yil (kalendar yil) muddatga tasdiqlanadi.

14. Komissiya tarkibi ta'lim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari, shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan tashkilot va muassasalarning yuqori malakali mutaxassislari, oliy ta'lim muassasalarining yetakchi professor-o'qituvchilaridan iborat bo'ladi.

15. Komissiya tarkibi ta'lim muassasasi rahbari tomonidan yakuniy attestatsiya jarayonlari boshlanishidan kamida ikki hafta oldin tasdiqlanadi.

16. Komissiyaning asosiy vazifasi bitiruvchilarning bilim, ko'nikma va malaka darajasining davlat talablariga muvofiq kelishini baholash hamda qayta tayyorlash yo'nalishini yanada lakomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashdan iborat.

4-bob. Yakuniy attestatsiyani o'tkazish shakllari

17. Yakuniy attestatsiya kursning o'quv rejasidagi ixtisoslik fanlari blokiga kiruvchi o'quv fanlari bo'yicha **yakuniy nazorat sinovlari** (test) va **bitiruv ishi himoyasi** orqali o'tkaziladi.

18. Yakuniy attestatsiyaning barcha shakllarida tinglovchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash 100 ballik tizimda amalga oshiriladi. O'tish balli kamida 56 foizni tashkil etadi.

19. Qayta tayyorlash kursining yakuniy nazorat sinovlari Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan o'tkaziladi.

Yakuniy nazorat sinovi jarayonida tinglovchilarga 50 tadan test topshiriqlari taqdim etiladi. Har bir to'g'ri yechilgan test topshirig'i uchun 2 ball beriladi.

Qayta tayyorlash kursining yakuniy nazorat sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan tinglovchilarga bitiruv ishini himoya qilishga ruxsat beriladi.

20. Bitiruv ishi himoyasi kursni tashkil qilgan kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti tomonidan o'tkaziladi.

Bitiruv ishi himoyasi qayta tayyorlash kursi o'quv rejasining mutaxassislik yoki ixtisoslik o'quv fanlari bo'yicha tinglovchi tomonidan muayyan bir mavzu doirasida mustaqil tayyorlangan, mantiqan tugallangan va belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ilmiy-metodik ishning taqdimoti shaklida o'tkaziladi.

Tinglovchilarning bitiruv ishini bajarishiga qo'yiladigan talablar, bitiruv ishini taqrizlash tartibi va baholash mezonlari ushbu Tartibning **1-ilovasiga** muvofiq belgilanadi.

21. Yakuniy attestatsiya sinovlarida yetarli ball to'play olmagan yoki uzrli sabablarga ko'ra (mehnatga layoqatsizlik, homiladorlik, tug'ish hamda bolani parvarish qilish ta'tili, xizmat safarida bo'lish va boshqalar) qatnasha olmagan tinglovchilarga bir yil davomida qayta topshirish imkoniyati beriladi.

Bunda yakuniy attestatsiya sinovlarida yetarli ball to'play olmagan tinglovchilarning takroriy attestatsiyasi to'lov-shartnoma asosida o'tkaziladi.

22. Yakuniy nazorat sinovlarini qayta topshirish natijalari salbiy bo'lgan taqdirda, tinglovchiga ushbu Tartibning **2-ilovasiga** muvofiq kursni tugatganlik to'g'risida ma'lumotnoma beriladi va bir yil davomida to'lov-shartnoma asosida qayta topshirishga ruxsat beriladi.

5-bob. Yakuniy attestatsiyani o'tkazish tartibi

23. Kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan yakuniy attestatsiya jarayonlari reja-jadvalini tasdiqlaydi, yakuniy test sinovlarini o'tkazish kunlarini belgilaydi va sinovlar o'tkaziladigan kundan kamida o'n kun oldin kurs tinglovchilariga e'lon qiladi.

24. Bitiruv ishi himoyasi komissiyalarning ochiq majlislarida, a'zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirok etgan taqdirda o'tkaziladi.

25. Yakuniy attestatsiyada qo'yilgan baholar komissiya majlisi qarori bilan tasdiqlanadi. Baholash natijalari mazkur Tartibning **3-ilovasida** keltirilgan bayonnomaga muvofiq rasmiylashtirilgandan so'ng, shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

26. Komissiya bitiruvchilarning yakuniy attestatsiya natijalari asosida ularga belgilangan namunadagi diplomni berish haqida qaror qabul qiladi.

27. Komissiya bayonnomasi uning raisi, a'zolari va kotibi tomonidan imzolanib rasmiylashtiriladi.

6-bob. Diplomni berish tartibi

28. Yakuniy attestatsiyada belgilangan ballni to'plagan tinglovchiga yakuniy attestatsiya natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 20 kun muddatda kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida belgilangan namunadagi hujjat (diplom) beriladi.

Tinglovchi diplomni shaxsiy kabineti orqali yuklab olishi mumkin.

29. Qayta tayyorlash kursi dasturini o'zlashtirganlik to'g'risidagi diplomlarning reestri Portal orqali yuritiladi.

30. Diplomning haqiqiyliги to'g'risidagi ma'lumotlarni maxsus portal orqali tekshirish imkoniyati yaratiladi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

31. Mazkur Tartibni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Bitiruv ishini bajarishiga qo‘yiladigan talablar, bitiruv ishini taqrizlash tartibi va baholash mezonlari

1-§. Bitiruv ishini bajarishning maqsad va vazifalari

1. Bitiruv ishi qayta tayyorlash kursida ta’lim olayotgan tinglovchi tomonidan o‘quv rejaning ixtisoslik fanlari bo‘yicha muayyan bir mavzu doirasida mustaqil yozilgan, tugallangan va rasmiylashtirilgan ilmiy-metodik ishning natijasi hisoblanadi.

2. Bitiruv ishini bajarishdan maqsad tinglovchilarda ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash hamda ular tomonidan ilmiy-metodik ishning mantiqiy tugallangan yechimini mustaqil bajarilgan ish sifatida shakllantirish va taqdim etishdan iborat.

3. Bitiruv ishini bajarishning vazifalari:

tinglovchilarni bajarilayotgan ilmiy-metodik ishning boshlanishidan to‘liq nihoyasiga yetkazishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarini amalga oshirish yuzasidan mas'uliyatni his etishga o‘rgatish;

zamonaviy ta’limning rivojlanishi sharoitida tinglovchilarni mustaqil ishlashga iyyorgarligini ta'minlash.

2-§. Bitiruv ishining mavzusi

4. Bitiruv ishlarining namunaviy mavzulari ro‘yxati mas'ul kafedra (keyingi o‘rinlarda – kafedra deb yuritiladi) tomonidan shakllantiriladi va kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

5. Bitiruv ishi mavzulari ro‘yxati o‘quv jarayonining birinchi haftasida tinglovchilarga e‘lon qilinadi.

6. Tinglovchilarga bitiruv ishi mavzularini tanlash huquqi beriladi.

3-§. Bitiruv ishini bajarishga rahbarlik

7. Bitiruv ishi mavzusi va bitiruv ishi rahbari (keyingi o‘rinlarda - rahbar deb yuritiladi) kafedra taqdimnomasiga binoan o‘quv jarayoni boshlangandan keyin bir oy muddat ichida kasbiy rivojlantirish ta’lim tashkiloti rahbari buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

8. Bitiruv ishiga rahbarlar tegishli ta’lim muassasasi, shuningdek boshqa ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari, ta’limni boshqaruv organlarining tajribali mutaxassislari tarkibidan tayinlanadi.

9. Rahbar mavzu tasdiqlangandan keyin bir hafta muddat ichida tinglovchiga mavzuga doir materiallarni to‘plash va bitiruv ishini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalarni beradi.

10. Bitiruv ishi rahbari:

bitiruv ishini bajarish jadvalini rejalashtiradi;
ilmiy, metodik, o‘quv va boshqa adabiyotlar, ma'lumot va arxiv materiallarini hamda tegishli manbalarni tavsiya etadi;
jadval asosida tinglovchilarga maslahat beradi;
qaytarilish yoki boshqa manbalardan ko‘chirilishga yo‘l qo‘ymaydi.

4-§. Bitiruv ishini bajarishga qo‘yiladigan talablar

11. Bitiruv ishi ta’lim olib borilgan tilda yoki kafedra tavsiyasiga muvofiq xorijiy tillardan birida ham bajarilishi mumkin. Xorijiy tilda bajarilgan bitiruv ishiga davlat tilida annotatsiya beriladi.

12. Bitiruv ishi matni A4 formatli standart oq qog'ozning bir tomoniga, ta’lim muassasasining talabiga ko‘ra kompyuterda yoziladi. Unda matn tushunarli, mantiqan tugallangan bo‘lishi talab etiladi. Bitiruv ishining hajmi kamida 5000 so‘zdan iborat bo‘ladi va ilovalar bunga kirmaydi.

13. Bitiruv ishining matnida o‘chirilgan so‘zlar va o‘zgartirishlarga yo‘l qo‘yilmaydi.

14. Bitiruv ishi quyidagi qismlardan iborat bo‘ladi: titul varag‘i; annotatsiya; mundarija; kirish; mavzuga oid adabiyotlar tahlili; mavzu bo‘yicha bajarilgan ilmiy-metodik ishlar tahlili; xulosa va tavsiyalar; foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati; ilovalar.

15. Bitiruv ishining mundarijasida kirish, bob va paragraflar nomlari, ular joylashgan sahifalarning tartib raqamlari ko‘rsatiladi.

16. Bitiruv ishining kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi, vazifalari, predmeti, obyekt, tadqiqot metodlari va bitiruv ishining tuzilishi keltiriladi.

17. Mavzuga oid adabiyotlar tahlilida ilmiy-nazariy, metodik manbalarning qisqacha sharhi, mavzuning ishlanganlik darajasi haqida ma'lumot beriladi.

18. Bitiruv ishining mavzu bo‘yicha bajarilgan ilmiy-metodik ishlar tahlili qismida mavzu bo‘yicha amalga oshirilgan ishlar, erishilgan natijalar, yangiliklar va me'yoriy ko‘rsatkichlar qiyosiy tahlil qilinadi hamda ularga tayangan holda ilgari surilayotgan yechimlar, takliflar va g'oyalar ilmiy jihatdan asoslanib, tegishli amaliy tavsiyalar beriladi.

19. Bitiruv ishining xulosa va tavsiyalar qismida uni bajarish jarayonida olingan natijalar umumlashtiriladi.

20. Bitiruv ishini bajarishda foydalanilgan va o‘rganilgan adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar hamda Internet materiallari o‘rnatilgan tartibda qayd etiladi.

21. Ilova qismida bitiruv ishining ayrim bo‘limlari uchun zarur bo‘lgan ko‘rgazmalar, chizma, sxema, jadval, rasm va slaydlar keltiriladi.

22. Bitiruv ishining mazmuniga quyidagi talablar qo‘yiladi: tanlangan mavzuning dolzarbligining asoslanishi; ishning maqsadi va vazifalarining to‘g‘ri

belgilanishi; bajarilayotgan ilmiy-metodik ishning o'rganilganlik holati tahlil qilinishi va umumlashtirilishi; ish ijodiy tavsifga ega bo'lishi, tinglovchining ilmiy-metodik ishni mustaqil bajarishga qobiliyati borligini ko'rsatishi; samarali yechimlar metodik jihatdan asoslab berilishi va o'quv jarayonida qo'llash yo'llari ko'rsatilishi; xulosalar to'g'ri shakllantirilishi, natijalar tahlil qilinishi va ularni qo'llash bo'yicha takliflar kiritilishi lozim.

5-§. Bitiruv ishiga taqriz berish tartibi

23. Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bitiruv ishi tinglovchi tomonidan rahbariga taqdim etiladi.

24. Rahbar bitiruv ishini talab darajasida bajarilganligi haqidagi o'z xulosasini kafedra mudiriga taqdim etadi.

25. Rahbar bitiruv ishi to'g'risidagi yozma xulosalarini quyidagi mezon ko'rsatkichlari asosida bayon etadi:

- a) tayyorlanish sifati;
- b) mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyatining ochib berilishi;
- d) mustaqil bajarilganligi va ijodiy yondashilganligi;
- e) maqsad va natijalarning mosligi;
- f) belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligi;
- g) pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanganligi;
- h) xulosa va tavsiyalarining asoslanganligi;

26. Kafedra mudiri bitiruv ishi va unga berilgan rahbar xulosasi asosida bitiruv ishini himoyaga tavsiya etish haqida taklif kiritadi.

27. Kafedra mudiri bitiruv ishini himoyaga tavsiya etish mumkin emas deb topsa, bitiruv ishini himoya qilish masalasi kafedra majlisida, rahbar ishtirokida muhokama qilinadi. Mazkur majlisning bayonnomasi kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti rahbariyatiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

6-§. Bitiruv ishini baholash mezonlari

28. Bitiruv ishi himoyasi zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida taqdimot (prezentatsiya) shaklida tashkil etiladi va o'tkaziladi.

Kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkiloti Kengashi tomonidan bitiruv ishi mavzusining xususiyatlariga ko'ra ularning himoyasini tashkil etish va o'tkazishning boshqa shakllari belgilanishi mumkin.

29. Kasbiy rivojlantirish ta'lim tashkilotida bitiruv ishlari himoyasini taqdimot shaklida tashkil etish uchun maxsus jihozlangan o'quv xonalari belgilanadi.

30. Qayta tayyorlash kursi tinglovchilarining bitiruv ishlari quyidagi mezon ko'rsatkichlari asosida 100 ballik tizimda baholanadi.

- a) tayyorlanish sifati;
- b) mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyatining ochib berilishi;
- d) mustaqil bajarilganligi va ijodiy yondashilganligi;

- e) maqsad va natijalarning mosligi;
- f) belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligi;
- g) pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanganligi;
- h) xulosa va tavsiyalarining asoslanganligi;
- i) taqdimot va berilgan savollarga javoblarning to'liqligi.

31. Bitiruv ishi ko'rsatkichlari himoyada ishtirok etgan attestatsiya komissiyasining har bir a'zosi tomonidan qo'yilgan ballar o'rtachasi hisobidan aniqlanadi.

32. Bitiruv ishi ko'rsatkichlariga qo'yilgan o'rtacha ballar 56 va undan yuqori bo'lsa bitiruv ishi muvaffaqiyatli himoya qilingan va ijobiy baholangan hisoblanadi.

33. Bitiruv ishi va unga berilgan taqrizlar ta'lim muassasasida (uch yil) saqlanadi.

Qayta tayyorlash kursi
bitiruvchilarining yakuniy davlat
attestatsiyasini tashkil etish tartibiga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

(Ta'lim muassasining nomi)

**Qayta tayyorlash kursini tugatganlik to'g'risida
MA'LUMOTNOMA**

202__-yil «__» _____
_____ - sonli

Ushbu ma'lumotnoma _____
(viloyat, tuman, shahar,

_____ ga
tinglovchining ish joyi, lavozimi, F.I.Sh.)

202__-yil _____ dan _____ gacha _____ soatlik o'quv rejaga

asosan o'tkazilgan _____
kursning nomlanishi (yo'nalishi)

_____ kursida
qayta tayyorlash

o'qiganligi to'g'risida berildi.

*Ushbu ma'lumotnoma dars berish yoki ixtisoslik bo'yicha kasbiy (pedagogik)
faoliyat bilan shug'ullanish huquqini bermaydi.*

Rektor

_____ Imzo

_____ F.I.Sh.

M.o'.

Qayta tayyorlash kursi
bitiruvchilarining yakuniy davlat
attestatsiyasini tashkil etish tartibiga
3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

(Ta'lim muassasining nomi)

Qayta tayyorlash kursi tinglovchisi _____ ning
(F.I.SH)

yakuniy attestatsiya natijalari bo'yicha attestatsiya komissiyasi yig'ilishi

BAYONNOMASI

Tinglovchining yakuniy nazoratdagi natijalari:

Test bo'yicha bali _____ ;

Bitiruv ishi rahbari: _____
(F.I.SH)

Bitiruv ishiga komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan ballar:

| T/r | Komissiya a'zosining F.I.Sh. | Tayyorlanish sifati | Mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy ahamiyatining ochib berilishi | Mustaqil bajarilgani va ijodiy yondashilgani | Maqsad va natijalarning mosligi | Belgilangan tartibda rasmiylashtirilgani | Pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanilganligi | Xulosa va tavsiyalarning asoslanganligi | Taqdimot va berilgan savollarga javoblarning to'liqligi | Jami ball |
|--------------------|---------------------------------|---------------------|---|---|---------------------------------|---|--|--|--|------------|
| | Maksimal ball | 5 | 10 | 10 | 10 | 5 | 10 | 10 | 40 | 100 |
| 1. | | | | | | | | | | |
| 2. | | | | | | | | | | |
| 3. | | | | | | | | | | |
| 4. | | | | | | | | | | |
| 5. | | | | | | | | | | |
| O'rtachasi: | | | | | | | | | | |

Komissiya qaror qiladi:

Qayta tayyorlash kursi tinglovchisi _____ ning yakuniy
attestatsiya natijalari tasdiqlansin.

Yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan (o'tmagan) qayta tayyorlash kursi tinglovchisiga _____ fanidan dars berish yoki ixtisoslik bo'yicha kasbiy (pedagogik) faoliyat bilan shug'ullanish huquqini berish bo'yicha tasdiqlangan namunadagi diplom berilsin (berilmasin).

Komissiya raisi

Imzo

F.I.Sh.

Komissiya a'zolari

Imzo

F.I.Sh.

Imzo

F.I.Sh.

Imzo

F.I.Sh.

Imzo

F.I.Sh.

« _____ » _____ 202__ y.

Qayta tayyorlash kursi
bitiruvchilarining yakuniy davlat
attestatsiyasini tashkil etish tartibiga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

(Ta'lim muassasining nomi)

**Qayta tayyorlash kursini tugatganlik to'g'risida
MA'LUMOTNOMA**

202__-yil «__» _____
_____ - sonli

Ushbu ma'lumotnoma _____
(viloyat, tuman, shahar,

_____ ga
tinglovchining ish joyi, lavozimi, F.I.Sh.)

202__-yil _____ dan _____ gacha _____ soatlik o'quv rejaga

asosan o'tkazilgan _____
kursning nomlanishi (yo'nalishi)

_____ kursida
qayta tayyorlash

o'qiganligi to'g'risida berildi.

*Ushbu ma'lumotnoma dars berish yoki ixtisoslik bo'yicha kasbiy (pedagogik)
faoliyat bilan shug'ullanish huquqini bermaydi.*

Rektor

_____ Imzo

_____ F.I.Sh.

M.o'.